

**SEYSMOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.08.2022.T.97.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**
SEYSMOLOGIYA INSTITUTI

BOZOROV JONIBEK SHAVKATOVICH

**QURILISH MAYDONLARIDA SEYSMIK JADALLIKNI O'ZGARISHINI
LYOSSIMON GRUNTLI ASOSLARNI MUHANDISLIK TAYYORLASH
USULLARINI QO'LLAGAN HOLDA BAHOLASH**

05.10.03 – Seysmik xavfsizlik

**texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Bozorov Jonibek Shavkatovich

Qurilish maydonlarining seysmik jadalligini o'zgarishini lyossimon gruntli asoslarni muhandislik tayyorlash usullarini qo'llagan holda baholash.....3

Бозоров Жонибек Шавкатович

Оценка изменения сейсмической интенсивности на строительных площадках с использованием методов инженерной подготовки лессовидных грунтовых оснований.....21

Bozorov Jonibek Shavkatovich

Assessment of changes in seismic intensity at construction sites using methods of engineering preparation of loess soil bases.....41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**SEYSMOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.08.2022.T.97.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**
SEYSMOLOGIYA INSTITUTI

BOZOROV JONIBEK SHAVKATOVICH

**QURILISH MAYDONLARIDA SEYSMIK JADALLIKNI O'ZGARISHINI
LYOSSIMON GRUNTLI ASOSLARNI MUHANDISLIK TAYYORLASH
USULLARINI QO'LLAGAN HOLDA BAHOLASH**

05.10.03 – Seysmik xavfsizlik

**texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/T4801 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Seysmologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbekcha, ruscha va inglizcha (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.seismos.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lif portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismailov Vaxitxon Alixanovich

geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kayumov Abdubaki Djalilovich

texnika fanlari doktori, professor

Aimbetov Izzet Kalliyevich

texnika fanlari doktori

Yetakchi tashkilot:

Toshkent arxitektura va qurilish universiteti

Dissertatsiya himoyasi Seysmologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.08.2022.T.97.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «11» dekabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100128, Toshkent shahri, Zulfiyaxonim ko'chasi, 3-uy; Tel.: +99871 241-51-70; +99871 241-74-98; E-mail: seismologiya@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Seysmologiya institutining Axborot-resurslar markazida tanishish mumkin (1155 - raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100128, Toshkent shahri, Zulfiyaxonim ko'chasi, 3-uy; Tel.: +99871 241-51-70.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «22» noyabr kuni tarqatildi.

(2024 yil «22» noyabr dagi 1 - raqamli reyestr bayonnomasi)



A.I. Tuychiev

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi o'rinosari,
f.-m.f.d.

M.A. Mirzaev

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f. falsafa doktori (PhD)

K.Dj. Salyamova

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy
seminar raisi o'rinosari, f.-m.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahonda kuchli zilzilalar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan talafotlarni kamaytirish, shuningdek aholi va hududlarning seysmik xavfsizligini ta’minlash masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bino va inshootlarning zamin gruntlarini mustahkamligini oshirish hisobiga seysmik ta’sirni kamaytirish, bino-inshootlarni zilzilabardoshligini baholash, zamin gruntlariga muhandis-texnik ishlov berish loyihalash-qurilish ishlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu borada, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llagan holda bino va inshootlarning grunt asoslarini muhandislik tayyorlash, hamda ularni zilzilabardoshliligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda seysmik faolligi yuqori bo‘lgan lyosimon gruntlar tarqalgan davlatlarda bino-inshootlarning zamin gruntlarini mustahkamligini oshirishda muhandis-texnik chora tadbirlarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda lyosimon gruntlarning cho‘kuvchanlik turidan kelib chiqqan holda muhandis-texnik tayyorlash, bir xil o‘lchamli modellar orqali bino va inshootlarga bo‘ladigan seysmik ta’sirlarni baholash hamda seysmik jadallik o‘zgarishini baholash kabi optimal uslubiyatni ishlab chiqishga doir tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, lyosimon gruntlarning seysmik mustahkamligini ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan izlanishlarni samaradorligini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizning seysmik faol hududlarida cho‘kuvchan lyosimon gruntlar tarqalgan Toshkent, Qo‘qon va Termiz shaharlarining qurilish maydonlarida seysmik jadallikni kamaytirishga erishilgan. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022–2026 yillarda yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-sonli Farmonida, jumladan «...ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash...»¹ vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda qurilish maydonlarida grunt zaminlarini zamonaviy texnologiyalar asosida muhandislik tayyorgarlik usullarini qo‘llagan holda seysmik jadallikni o‘zgarishini aniqlash va baholash, hamda mustahkamligini oshirish chora tadbirlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 maydagi PF-144-son “O‘zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” Farmoni, 2023 yil 16 maydagi PQ-158-son “O‘zbekiston respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublikaning fan va texnologiyalarni rivojlantirish – VIII «Yer haqidagi fanlar (geologiya, geofizika, seismologiya va mineral xom ashyoni qayta ishlash)» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarda yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

Muammoning o‘rganilganlik darjasи. Cho‘kuvchan lyosimon gruntlar tarqalgan hududlarning kuchli zilzilalar sodir bo‘lgandagi seysmik jadallikni baholash va gruntlarning dinamik xossalariни o‘rganish bo‘yicha maqsadli tadqiqotlar xorijiy davlatlarda D.D.Barkan, H.B.Seed, H.Dezfulian, V.L.Streeter, F.E.Udwadia, R.D.Andrus, K.X.Stokoe, S.Okamoto, K.Ishixara, Ye.A.Voznesenskiy, V.N.Kutergin va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlarida qurilish maydonlarida grunt sharoitini hisobga olgan holda seysmik jadallik o‘zgarishini baholashda S.V.Medvedov, Y.M.Abelev, N.I.Kriger, A.Y.Kurdyuk, A.S.Aleshin, A.A.Musaelyan, L.R.Stavnitser, M.V.Averochkina, A.N.Vaxtanova, A.D.Kojevnikov va boshqa olimlar o‘zlarining katta hissalarini qo‘shganlar.

O‘zbekiston hududida tarqalgan lyosimon gruntlarni muhandislik tayyorlash hisobiga, ya’ni qurilish xandaklarini suv bilan bostirish usulini qo‘llaganlikda seysmik jadallik qiymatini o‘zgarishini tabiiy dala sharoitlarida baholash tadqiqotlari G’.O.Mavlonov, rahbarligida S.M.Kosimov, S.A.Abduraxmonov, T.S.Valiev, M.Sh.Shermatov, V.A.Ismailov, M.P.Golberg, Z.Y.Axmedov, R.Sh.Inogamov, K.Sh.Nurmuxamedovlar tomonidan o‘rganilgan. Lyoss va qumli gruntlarni seysmik ta’sirlarda cho‘kish xususiyatlarini tadqiq qilish laboratoriya sharoitida X.Z.Rasulov rahbarligida Y.N.Chastoedov, S.S.Sayfiddinov, G’.A.Xakimov, N.G’.Mavlonova va boshqalar tomonidan olib borilgan va lyoss, qumli gruntlarni muhandislik tayyorgarlik bo‘yicha bir qancha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Sohaga oid tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, cho‘kuvchan gruntlar tarqalgan qurilish maydonlarda seysmik jadallikni kamaytirish va zamin gruntlarining yuk ko‘tarish qobilyatini oshirish yetarlicha o‘rganilmagan. Shundan kelib chiqqan holda qurilish maydonchalaridagi asos gruntlarni muhandis-texnik tayyorgarlikdan o‘tkazish evaziga hisobiy seysmiklikni baholash bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish talab etilmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejali bilan bog‘liqligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Qurilish maydonlarida seysmik ta’sir va seysmik jadallik ko‘rsatkichlarini kamaytirish usullarini ishlab chiqish» mavzusidagi amaliy loyihasi (2023 y.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi cho‘kuvchan lyosimon gruntlarni muhandis-texnik tayyorlash usullarini qo‘llash orqali qurilish maydonlarining seysmik jadalligini baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

cho‘kuvchan lyosimon gruntlar tarqalgan qurilish maydonlarining muhandis-geologik sharoitlarini hamda gruntlarning cho‘kuvchanlik turidan kelib chiqqan holda, gruntlarni sun’iy mustahkamlash usulini aniqlash;

zamonaviy kompyuter dasturlari yordamida qurilish maydonlarining 3D moldellarini yaratish hamda yaratilgan modellarda seysmik ta’sir darajalar qiymatlarini grunt zaminlarni muhandislik tayyorlash natijasida o‘zgarishini aniqlash;

qurilish maydonida lyosimon grunt asoslarni turli usullarda muhandislik tayyorgarlikni qo'llash orqali seysmik jadallik orttirma qiymatining o'zgarishini aniqlash;

cho'kuvchan lyosimon gruntlar tarqalgan qurilish maydonlarida zamonaviy sun'iy mustahkamlash texnologiyalarini qo'llash orqali tanlangan usullarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasi hududida tarqalgan cho'kuvchan lyosimon gruntlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti lyosimon gruntlarda muhandislik tayyorlash usullarini qo'llash natijasida qurilish maydonlarida seysmik ta'sir va seysmik jadallikni o'zgarishini baholash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida geofizik va muhandis geologik tadqiqot usullari, jumladan seysmik qattiqlik va mikrotebranishlar yozuvlari usullaridan hamda Strata va Plaxis 3D dasturlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

cho'kuvchan lyosimon gruntlar tarqalgan qurilish maydonlarida seysmik jadallikning kamayishi muhandis tayyorgarlik usuliga va grunt qatlaming fizik-mexanik ko'rsatkichlariga uзви bog'liqligi aniqlangan;

lyosimon gruntlarning seysmik xususiyatlarini hisobga olgan holda qurilish maydonlari uchun yaratilgan grunt modellarida seysmik tebranishlar qiymatlari (tezlanish (a_x), tezlik (v_x), va siljish (u_x)), grunt qatlamlarini muhandis tayyorlanganlik darajasiga ko'ra kamayishi aniqlangan;

ilk bor seysmik jadallik qiymati qurilish maydonida burg'ulama armaturali qoziqlar usulini qo'llaganda -1,22 ballargacha, temirbetonli qoziqlar usulida -1,02 ballgacha, deep soil mixing (texnologik grunt-sement qorishmali qoziqlar) qoziqlar usulida -0,91 ballgacha, grunt to'shalma usulida -0,52 ballgacha pasayishi aniqlangan;

ilk bor respublika hududining qurilish maydonlarida "Deep soil mixing" qoziqlar usulini qo'llash natijasida seysmik jadallikni 1 ballga kamaytirish mumkinligi tadqiq etilgan hamda bu usulni boshqa usullarga nisbatan samaradorligi baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

qurilish maydonlarida eksperimental tadqiqotlar asosida cho'kuvchan lyosimon grunt zaminlarni turli usullarda muhandis-texnik tayyorlash natijasida ularni fizik-mexanik va seysmik xususiyatlarini ifodalovchi ko'rsatkich qiymatlarining o'zgarishi aniqlangan;

qurilish maydonlaridagi lyosimon gruntli asoslarda turli muhandis-texnik tayyorgarlik tadbirlarni qo'llashdan oldingi va keyingi holatidagi seysmik jadallik orttirmaslarining o'zgarishi muhandis-seysmologik uslublarda va kompyuter dasturlari yordamida baholangan;

muhandis-texnik tayyorgarlikdan oldingi va keyingi holatlarda qurilish maydonining seysmik jadalligini aniqlash uslublari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi: Respublika hududida cho'kuvchan lyosimon gruntlar tarqalgan qurilish maydonlarida olib borilgan muhandis-geologik, geofizik va instrumental seysmometrik tadqiqotlar, shuningdek qurilish

maydonlarida 50 ta burg‘u quduqlaridan olingen ma’lumotlari hamda 200 tadan ortiq namuna va monolitlarda o‘tkazilgan laboratoriya ishlari va dala sharoitlarida 90 ta seysmik qidiruv tadqiqotlari o‘tkazilgan maydonlarda turli hududlari uchun muhandis-seysmogeologik qirqimlardan olingen natijalar asosida gruntlarning fizik-mexanik va seysmik xossalari bo‘yicha tahliliy ishlar olib borilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, cho‘kuvchan lyosimon gruntlar tarqalgan qurilish maydonlarida, gruntlarni fizik-mexanik va seysmik xususiyatlarini turli muhandislik tayyorlash usullar orqali o‘zgartirishni baholashda grunt modellarini yaratilganligi va ushbu modellarni qo‘llagan holda qurilish maydonida seysmik ta’sir jadallik miqdorini o‘zgarishini baholanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, lyosimon gruntlar tarqalgan qurilish maydonlarida muhandislik tayyorgarlik uslublarini qo‘llash orqali grunt qatlamlarni seysmik ta’sirlarga mustahkamligini oshirish va kuchli zilzilalar sodir bo‘lgan vaqtda, bino va inshootlarga keladigan seysmik kuchlanishni kamaytirish, qolaversa keng ko‘lamli iqtisodiy zararlarni oldini olish va eng muhimi aholi va hududlarni seysmik xavfsizligini ta’minlash uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qurilish maydonlarida muhandis-texnik tayyorgarlikdan oldingi va keyingi o‘tkazilgan muhandis-geologik, geofizik va instrumental tadqiqotlar hamda Plaxis 3D va Strata dasturlaridan foydalangan holda olingen ilmiy amaliy natijalar asosida:

seysmik jadallikni baholashda seysmik qattiqlik usuli, hamda Strata va Geopsy dasturlaridan foydalangan holda olingen natijalar Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi amaliyatiga joriy etilgan (Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2024 yil 25 yanvardagi 24-06/823 son ma’lumotnomasi). Natijada, lyosimon gruntlarda 30 m qalinlik bo‘yicha seysmik jadallik orttirmasi qiymatlari aniqlashga hamda seysmik xavfsizligini samarali baholashga imkon yaratgan;

lyosimon gruntlarni muhandis-texnik tayyorlash hisobiga qurilish maydonida seysmik jadallikning kamayishi baholash Texnik me’yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti amaliyatga joriy etilgan (Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2024 yil 25 yanvardagi 24-06/823 son ma’lumotnomasi). Natijada, grunt to‘shalmasida $\Delta I=0,52$ ballga, temirbetonli qoziqlarda $\Delta I =1,02$ ballga, Deep soil mixing qoziqlar $\Delta I =0,91$ ballga, burg‘ulama armaturali qoziqlarda $\Delta I =1,22$ ballargacha kamayishiga imkon yaratgan;

qurilish maydonlarida qo‘llanilgan muhandis-texnik tayyorgarlik usullarini taqqoslash natijalari Texnik me’yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti amaliyatga joriy etilgan (Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2024 yil 25 yanvardagi 24-06/823 son ma’lumotnomasi). Natijada, iqtisodiy jihatdan, shuningdek qurilish vaqtini qisqartirishdagi eng samarali usul Deep soil mixing qoziqlari bo‘lib, maydonning seysmiklik darajasini $\Delta I =1$ ballga kamaytirishga imkon yaratgan;

qurilish maydonlaridagi lyosimon gruntlarning seysmik xususiyatlarini hisobga olgan holda muhandis-texnik tayyorgarlikdan oldingi va undan keyingi yaratilgan grunt modellari Texnik me’yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot

instituti amaliyotga joriy etilgan (Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining 2024 yil 25 yanvardagi 24-06/823 son ma’lumotnomasi). Natijada, Plaxis 3D dasturi orqali tezlanish a_x , tezlik v_x , va siljish u_x , qiymatlarining kamayishiga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot 4 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 13 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta, shu jumladan, 6 ta respublikada va 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda chop yetilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 117 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkaziladigan tadqiqotlarning dolzarbliji va unga bo‘lgan talab, tadqiqot maqsadi va vazifalari asoslangan, tadqiqot ob’yekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustivor yo‘nalishlarga muvofiq kelishi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar bo‘yicha ma’lumotlar dissertatsiyaning tuzilishiga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Cho‘kuvchan lyosimon gruntlarni seysmik jadallikga ta’sirini o‘rganilganlik holati**» deb nomlangan birinchi bobida cho‘kuvchan lyoss gruntlarining seysmik jadallikka ta’sirini baholash bo‘yicha ilmiy ishlar XX asrning 60 yillariga kelib qurilish maydonlarining grunt sharoitini hisobga olgan holda zilzilalar vaqtida seysmik jadallikni o‘zgarishini baholash S.V. Medvedov tomonidan 1962 yilda qo‘llanila boshlangan. Keyinchalik XX asrning 70 yillariga kelib Y.M. Abelev “Cho‘kuvchan makrog‘ovakli gruntlarda qurilish va loyihalash asoslari” nomli ilmiy ishida seysmik hududlarda cho‘kuvchan gruntlarda qurilish, ya’ni cho‘kuvchan gruntlarda tarqalgan qurilish maydonlarida muhandislik tayyorgarlik ishlarining turlari va ularni qurilish amaliyotida qo‘llash bo‘yicha o‘zining ilmiy ishlarida keltirib o‘tgan.

Qolaversa bu yo‘nalishda A.A. Musaeluan, L.R. Stavnitser, M.V. Averochkina, A.N. Vaxtanova, N.I. Kriger, A.D. Kojevnikov va boshqalar o‘z ilmiy ishlarida e’tiborini lyoss gruntlarining fizik-mexanik, elastiklik va seysmik xossalari orasidagi o‘zaro korrelyatsion bog‘liqliklarga qaratganlar. Ko‘p yillik ilmiy eksperimental tadqiqotlar asosida X.Z. Rasulov, S.S. Sayfiddinov va G‘.A. Xakimov tomonidan lyosimon gruntlarda cho‘kuvchanlik jarayonini rivojlanishiga ta’sir etuvchi seysmik kuchlarni baholab, ularni hisoblash uchun emperik ifodalar tavsiya etgan. 1977 yilga kelib A.Y. Kurdyuk qurilish maydonlarida tarqalgan cho‘kuvchan gruntlarni muhandislik tayyorgarlikdan o‘tkazish va seysmiklik darajasini o‘zgarishini hisoblash usullarda baholash bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borgan.

A.Y. Kurdyuk asosan lyoss gruntlarini muhandislik tayyorgarlikdan o'tkazishda, tayyorlangan qatlamning o'lchamlari orasidagi bog'liqlarni aniqlagan.

Shuningdek xorijiy davlatlarda ushbu yo'nalish bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan olimlar D.D. Barkan, H.B. Seed, N. Dezfulian, V.L. Streeter, F.E. Udwadia, R.D. Andrus, K.X. Stokoe, S. Okomoto, K. Ishixara, Ye.A. Voznesenskiy, V.N. Kuterigin va boshqalar. Ular kuchli dinamik tebranishlar ta'sirida dispers gruntlarda rivojlanishi kutilayotgan jarayonlarni eksperimental tadqiq qilib, gruntlarni turi bo'yicha tasniflar ishlab chiqishgan.

Shuningdek, O'zbekiston hududida tarqalgan lyosimon gruntlarning seysmik jadallikga ta'sirini baholash tadqiqotlari G.O. Mavlonov rahbarligida S.M. Qosimov, S.A. Abduraxmonov, T.S. Valiyev, M.Sh. Shermatov, Z.Y. Axmedov, K.Sh. Nurmuxammedov va boshqalar tomonidan dala sharoitida olib borilgan. Cho'kuvchan lyosimon gruntlarda texnogen dinamik ta'sirlarda deformatsiyalanish xususiyatlarini N.G. Mavlonova tomonidan tadqiq qilinib, deformatsiya jarayonini rivojlanishiga tebranish ko'rsatkichlarini qiymati miqdoriy baholangan. Keyinchalik Seysmologiya institutida ko'p qamrovli tadqiqotlar assosida V.A. Ismailov, M.P. Golberg, T.S. Valiyev va R.Sh. Inogamov va boshqalar tomonidan lyoss qatlamlarini silikatli eritmalar ta'sirida mexanik va seysmik xususiyatlarini mustahkamlash va shu orqali seysmik jadallik qiymatini kamaytirish tadqiqotlarini olib brogan. Ushbu yo'nalishda olingan salmoqli natijalarga qaramay, hozirgi kunda cho'kuvchan lyoss gruntlarini texnik melioratsiya usullari bilan ularning seysmik xususiyatlarini o'zgarishi to'laqonli aniqlangan.

Dissertatsiyaning **«Lyosimon gruntlarda cho'kuvchanlik xususiyatlarini bartaraf qilish bilan bog'liq gruntlardagi muhandis-geologik xususiyatlarni o'zgarishini baholash»** deb nomlangan ikkinchi bobida qurilish maydonlarida tarqalgan cho'kuvchan lyoss gruntlarini turli usullar yordamida muhandislik tayyorgarlikdan o'tkazish orqali gruntlarning fizik-mexanik xossalarni o'zgarishlari keltirilgan.

Mazkur bobda har bir qurilish maydonida gruntlarning cho'kuvchanlik turidan hamda loyihalanayotgan binolarning konstruktiv turidan, qavatlar sonidan kelib chiqqan holda muhandislik tayyorgarlik usuli va muhandislik tayyorgarlikdan o'tkaziladigan qatlam qalinliklari tanlangan. Asos gruntlarning qurilish xususiyatlarini o'zgartirishga qaratilgan muhandislik tadbirlarini asosan quyidagilarga ajratish mumkin: mexanik mustahkamlash usullari; zaif poydevor gruntlarni almashtirish usullari; fizik va kimyoviy mustahkamlash usullari. Tadqiqot ishida quyidagi usullar ko'rib chiqilgan:

1. Grunt to'shalmasini o'rnatish usuli;
2. Temirbeton qoziqlarni o'rnatish usuli
3. Deep soil mixing qoziqlarini o'rnatish usuli.

Grunt to'shalmasini o'rnatish usuli. Toshkent shahri Shayxontoxur tumanida joylashgan 4 qavatli Maishiy savdo kompleksi qurilishi kotlovaniga loyiha bo'yicha 5 m qalinlikdagi grunt to'shalmasini o'rnatish belgilangan. Qurilish maydonida qalinligi 30 m dan ziyod bo'lgan prolyuvial lyosimon gruntlardan iborat (pQ_{II}^{ts}). Cho'kuvchan lyoss gruntlarining tabiiy holatdagi fizik-mexanik xossalari quyidagilarda ifodalanadi, mineral zarrachalar zichligi $\gamma=2,67-2,68$ g/sm³, hajm

og‘irligi $\rho=1,42-1,65$ g/sm³, g‘ovakligi $n=44-52,8\%$, tabiiy namligi $W=12,0-19,8\%$ ni, g‘ovaklik koeffitsiyenti $e=0,805-0,990$, umumi deformatsiya moduli $E=5,0-15,0$ MPa ni tashkil qilgan. Qurilish maydoni kotlovaniga joylashtirilgan grunt to‘shalmasidan olingan namunalar asosida laboratoriya sharoitida gruntlarning hajm og‘irligi, g‘ovakligi, tabiiy namligi, g‘ovaklik koeffitsiyenti, ichki ishqalanish burchagi, bog‘lanish kuchi va umumi deformatsiya modulining qiymatlari aniqlangan. Olingan natijalar asosida korrelyatsion bog‘liqliklar grafiklari tuzilgan. Muhandislik tayyorgarlikdan oldingi va keyingi gruntning zichligi o‘rtalik hisobda 1,55 g/sm³ dan 1,85 g/sm³ gacha ortgan, g‘ovaklik esa 40% dan 33% gacha kamaygan. G‘ovaklik koeffitsienti esa 0,93 dan 0,35 gacha kamaygan. Umumi deformatsiya moduli qiymatlari esa 9 MPa dan 16 MPa gacha oshgan. Temirbeton qoziqlarni joylashtirish usuli. Tadqiqot ishi “Termiz shahri I.Karimov ko‘chasi Farovon massivi” hududida 5 ta 16 qavatli turar-joy binosi joylashgan hududda amalga oshirilgan. Loyiha bo‘yicha 16 qavatli turar-joy binosining o‘lchamlari 20,6x28,3 m ni tashkil etadi. Binoning asosiga 110 ta 12 m li, diametric 35 sm li temirbetonli qoziqlar o‘rnatilishi loyihalangan. Tadqiqot maydonida apQ_{IV}^{gl} davrlar yotqiziqlari tarqalgan. O‘tkazilgan muhandis-geologik tadqiqotlar natijasiga ko‘ra qurilish maydonida 3 ta MGE (muhandis-geologik element) aniqlangan. 1-MGE yer osti suvlari sathigacha bo‘lgan qismi lyosimon suglinok tog‘ jinsi o‘rtacha 5,0 m qalinlikni tashkil qiladi. 2-MGE yer osti suvlarining yuqori qismida supess tog‘ jinsi tashkil qiladi va qalinligi o‘rtacha 1,5 m gacha yetadi. 3-MGE yer osti suvlaridan pastda joylashgan qismi, ya’ni 30 m chuqirlikgacha bo‘lgan qismida supes va o‘rtalik zarrachali qum tog‘ jinslari tarqalgan. Maydonda tarqalgan cho‘kuvchan gruntlarning tabiiy fizik-mexanik xossalari mineral zarrachalar zichligi $\gamma=2,6-2,68$ g/sm³, hajm og‘irligi $\rho=1,55-1,85$ g/sm³, g‘ovakligi $n=36,1-45,0\%$, tabiiy namligi $W=13,5-28,2\%$, g‘ovaklik koyeffitsiyenti $e=0,905-0,330$, deformatsiya moduli $E=5,8-16,4$ MPa ni tashqil qiladi. Muhandis tayyorgarlikdan keyingi holatdagi gruntlarning fizik-mexanik xossalari, mineral zarrachalar zichligi $\gamma=2,68-2,72$ g/sm³, hajm og‘irligi $\rho=1,94-2,4$ g/sm³, g‘ovakligi $n=27,5-34,0\%$, tabiiy namligi $W=11,3-25,0\%$, g‘ovaklik koyeffitsiyenti $e=0,550-0,270$, deformatsiya moduli $E=12,0-38,5$ MPa ni tashqil qilgan. Deyep soil mixing qoziqlarini o‘rnatish usuli. Muhandis-geologik, geofizik va seysmometrik tadqiqotlar Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahri Turkiston va Movaraunnaxr ko‘chalari kesishmasida joylashgan “16 qavatli turar-joy binolari” qurilishi kotlovanida o‘tkazilgan. Loyiha bo‘yicha 16 qavatli turar joy binosi ostida 620 m² maydonda uzunligi 19 m, diametri 1 m (DSM) bo‘lgan 154 ta qoziq joylashtirish rejalashtirilgan. Tadqiqot maydonida to‘rtlamchi davrlar yotqiziqlari tarqalgan bo‘lib allyuvial-prolyuvial yo‘l bilan hosil bo‘lgan yuqori to‘rtlamchi davrlar yotqiziqlari golodnostep komplekslari (apQ_{III}^{gl}) tarqalgan. Muhandis-geologik izlanishlar bo‘yicha maydonda gruntlar 4 ta muhandis-geologik elementga ajratilgan. MGE-1 - supes, MGE-2 - suglinok, MGE-3 - graviy va MGE-4 -galechnik va har bir elementning fizik-mexanik xossalari aniqlangan. Qurilish maydonida DSM qoziqlari joylashtirilishidan oldingi va keyingi holatlardagi gruntlarning fizik-mexanik xossalaring o‘zgarishi quyida keltirib o‘tilgan. Muhandislik tayyorgarlikdan oldingi va keyin gruntning zichligi o‘rtalik hisobda 1,75 g/sm³ dan 2,10 g/sm³ gacha oshgan, g‘ovaklik esa 43 % dan 36 % gacha kamaygan.

G‘ovaklik koyeffitsiyenti esa 1,100 dan 0,30 gacha kamaygan. Deformatsiya modulining qiymatlari yesa E=5,5 MPa dan 35 MPa ga o‘zgargan.

Dissertatsiyaning «**Turli texnologiya asosida grunt zaminlarni muhandislik tayyorlash orqali qurilish maydoni seysmik jadalligini o‘zgarishni baholash**» deb nomlangan uchinchi bobida, tanlangan 4 xil muhandis-texnik tayyorgarlik usullarini qo‘llash orqali seysmik jadallik qiymatlarining o‘zgarishi aniqlangan. Qurilish maydonining seysmik jadalligini o‘zgarishini aniqlashda quyidagi usullar va zamonaviy kompyuter muhandislik dasturlaridan foydalanilgan:

1. Seysmik qattiqlik usuli;
2. Nakamura usuli;
3. Strata dasturi;

Seysmik qattiqlik usuli etalon gruntga nisbatan seysmik jaddalik orttirmasining qiymati ortishi yoki kamayishi, gruntning fizik-mexanik xususiyatlarining o‘zgarishi, ya’ni grunt zichligi va ko‘ndalang to‘lqinlar tezligi munosabati bilan ifodalanadi. Ushbu usul bo‘yicha seysmik jadallik orttirmasini hisoblashda qalinligi 30 m bo‘lgan grunt qatlami hisobga olingan.

Seysmik jadallik orttirmasi qiymatlarining o‘zgarishini o‘rganilayotgan va etalon gruntu uchun baholash quyidagi ifoda bo‘yicha bo‘yicha amalga oshirilgan va olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan:

$$\Delta I = 1,671 \times \log \left(\frac{V_{s30, rep.} \times \rho_{30, rep.}}{V_{s30, i} \times \rho_{30, i}} \right) \quad (1)$$

bu yerda $V_{s30, rep.}$ – referent gruntning ko‘ndalang to‘lqin tezligi, $\rho_{30, rep.}$ – referent gruntning zichligi, $V_{s30, i}$ – o‘rganilayotgan grunt qatlamidagi ko‘ndalang to‘lqinlar tezligi, ρ_{30i} – o‘rganilayotgan grunt qatlamiga mos keladigan zichlik.

V_{s30} qiymati quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$V_{s30} = \frac{30}{\sum_{i=1}^h \frac{h_i}{v_{si}}} \quad (2)$$

bu yerda v_{si} – S-to‘lqinining tezligi (m/s) yuqori 30 metrli grunt qatlaming bir qismi sifatida, qalinligi (m) bo‘lgan alohida i -qatlamda.

Qalinligi 30 m bo‘lgan grunt qatlaming o‘rtacha zichligi ρ_{30} quydagisi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$\rho_{30} = \frac{\sum_{i=1}^h (\rho_i \times h_i)}{30} \quad (3)$$

bu yerda ρ_i va h_i – yuqori 30 metrli grunt qatlami tarkibidagi alohida qatlam i ning zichligi va qalinligi (m).

1-jadval

Seysmik qattiqlik usuli yordamida aniqlangan orttirma ball qiymatlari

Nº	Muhandislik tayyorgarlik usullari	Tabiiy holatda, ΔI_1	Keyingi holat, ΔI_2	Seysmik jadallik orttirmasi orasidagi farq, ΔI
1.	Grunt to‘shalmasi	+0,76	+0,24	0,52
2.	Temirbeton qoziq	+0,70	-0,36	1,06
3.	Deep soil mixing	+0,64	-0,27	0,91
4.	Burg‘ilama armoturali qoziq	+0,88	-0,34	1,22

Qolaversa ushbu qurilish maydonining ikkala holat uchun ham seysmik jadallik orttirmasi qiymati Nakamura usuli yordamida aniqlangan. Bu usul mikroseysmik tebranishlarning gorizontal (H) va vertikal (V) komponentlarining amplituda spektrlari orasidagi nisbatini (H/V) baholashga asoslangan. Instrumental tadqiqotlarni tahlil qilish davomida Geopsy dasturi yordamida muhandislik tayyorgarlikdan oldingi va keyingi o‘lchov nuqtalarining HVSR spektrlari olingan. Olingan HVSR spektrlari asosida, 4-ifoda yordamida seysmik jadallik orttirmasi hisoblangan. Olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

$$\Delta I = 2 \log \frac{HV_i}{HV_o}, \quad (4)$$

2-jadval

Nakamura usuli yordamida aniqlangan seysmik jadallik orttirma qiymatlari

Nº	Muhandislik tayyorgarlik usullari	Tabiiy, holatda, ΔI_1	Keyingi holat, ΔI_2	Seysmik jadallik orttirmasi orasidagi farq, ΔI
1.	Grunt to‘shalmasi	+0,18	-0,03	0,21
2.	Temirbeton qoziq	+0,48	-0,36	0,84
3.	Deyep soil mixing	+0,33	-0,16	0,49
4.	Burg‘ilama armoturali qoziq	+0,53	-0,18	0,71

Shuningdek Strata dasturidan foydalangan holda tadqiqot maydonidagi gruntnarning cho‘qqi tezlanish qiymatlari aniqlangan. Ushbu dastur seysmik to‘lqinlarning so‘nishi ehtimoli va o‘zgarishini, gruntning bir jinsli emasligi, vaqt o‘tishi bilan tezlik va tezlanishlarning o‘zgarishi, qatlam qalinligining o‘zgarmasligi, shuningdek, yer yuzasidan qoya toshgacha bo‘lgan masofaning o‘zgarmasligi amalga oshiriladi.

Tanlangan hududlarda qoya tosh tog‘ jinslari uchun ko‘ndalang to‘lqinlarning tezligi maksimal Vs=1400 m/s va undan yuqori darajaga yetadi, bu QMQ.2.01.03-19 bo‘yicha seysmik xususiyatlarga ko‘ra gruntning birinchi toifasiga to‘g‘ri keladi. Dastur orqali hisoblash ishlarini amalga oshirish uchun akselerogramma va reaksiya spektri tomonidan berilgan dastlabki seysmik ta’sirni aniqlash va grunt qatlamining seysmogeologik modellarini yaratish kerak. Zilzilaning real akselerogrammasi, ularning mexanizmi va seysmik to‘lqinlarning tarqalish tabiatini bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududining seysmologik sharoitlariga moslashtirilgan. Gruntning geologik tuzilishi va fizik xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar gruntning seysmik reaksiyasiga javobini modellashtirish uchun dastlabki ma’lumotlar hisoblanadi. Bunday modellashtirish usuli, chekli elementlar usuliga asoslangan. Ushbu modellashtirish grunt qatlamining rezonans xususiyatlarini hisobga olishga va grunt sharoitlarining amplituda, chastota spektri va tebranish davomiyligiga ta’sirini baholashga imkon beradi. Natijada dastur yordamida ikkala holatdagi gruntnarning cho‘qqi tezlanishi qiymatlari orasidagi farqlar keltirib o‘tilgan. Yuqoridagi usullardan foydalangan holda qurilish maydonlarida tarqalgan gruntnarning cho‘qqi tezlanish qiymatlari muhandislik tayyorgarlikdan oldingi va keyingi holatlarda hisoblangan natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

**Strata dasturi orqali hisoblangan gruntlarning cho‘qqi tezlanish
qiymatlari**

Nº	Muhandislik tayyorgarlik usullari	Tabiiy, holatda, PGA ₁ , (g)	Keyingi holat, PGA ₂ , (g)	Cho‘qqi tezlanishlar orasidagi farq ΔPGA, (g)
1.	Grunt to‘shalmasi	0,42	0,35	0,07
2.	Temirbeton qoziq	0,44	0,29	0,15
3.	Deyep soil mixing	0,55	0,42	0,13
4.	Burg‘ilama armoturali qoziq	0,49	0,33	0,16

Dissertatsiyaning «**Grunt zaminlarini turli texnologiyalar asosida muhandislik tayyorlangan qatlam kattaligining fazoviy holati bo‘yicha seysmik jadallik o‘zgarishini hisoblash usuli bilan baholash**» deb nomlangan to‘rtinchi bobida seysmik to‘lqinlarning cheksiz fazoda tarqalishini Plaxis 3D dasturidan foydalangan holda chekli elementlar usulida yechilgan. Cheksiz yarim fazoda seysmik to‘lqinlarning tarqalishi haqidagi masalani yechishga sonli usullarni to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llab bo‘lmaydi. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun cheksiz yarim fazoni biz tanlab olgan sohasini cheklangan parallelepiped bilan almashtiramiz. Shu bilan birga, parallelepipedning davomi tashlab yuborilgan tomonlarining yuzlariga tashlab yuborilgan qismining ta’sirini ifodalovchi, ya’ni chegaraga tushgan to‘lqinlarni qaytarmasdan o‘tkazib yuboruvchi chegaraviy shartlar qo‘yiladi.

$$\left. \begin{array}{l} \sigma_x = a\rho V_p \dot{u} \\ \tau_{yz} = b\rho V_s \dot{u} \\ \tau_{zy} = b\rho V_s \dot{w} \end{array} \right\} \quad \left. \begin{array}{l} \sigma_y = a\rho V_p \dot{v} \\ \tau_{xz} = b\rho V_s \dot{w} \\ \tau_{zx} = b\rho V_s \dot{u} \end{array} \right\} \quad \left. \begin{array}{l} \sigma_z = a\rho V_p \dot{w} \\ \tau_{xy} = b\rho V_s \dot{u} \\ \tau_{yx} = b\rho V_s \dot{v} \end{array} \right\} \quad (5)$$

bu yerda σ va τ – normal va urinma kuchlanishlar; \dot{w} – vaqt bo‘yicha olingan hosila, \dot{u} va \dot{v} – chegaraviy nuqtalar tezlanishlarni o‘qlardagi proyektsiyalari; V_p va V_s – P ba S to‘lqinlarning tezliklari; a va b – o‘lchamsiz parametrlar; ρ – materialning zichligi.


Gruntlarning fizik-mexanik xususiyatlarini hisobga olgan holda hosil bo‘lgan tugunlarning harakati va tezligi va tezlanishini aniqlaymiz. Dinamik yuk ta’sirida tizimning harakatlanish vaqtiga bog‘liq bo‘lgan asosiy tenglamalar sistemasi quyidagicha ifodalanadi:

$$[M]\{\ddot{u}\} + [C]\{\dot{u}\} + [K]\{u\} = \{F\}, \quad (6)$$


bu yerda differensial tenglamalar tizimining tartibi 36693, $[M]$ – massalar matriksasi, $\{u\}$ – siljish vektori, $[C]$ – so‘ndiruvchi matriksa, bu chegara shartlarini ham hisobga oladi, $[K]$ – matriksa qattiqligi, $\{F\}$ – yuk vektori, siljish $\{u\}$, tezlik $\{\dot{u}\}$ va tezlanish $\{\ddot{u}\}$ lar vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin.

Lyoss gruntlarida grunt to‘shalmasi usulidan foydalangan holda qurilish maydonining seysmiklik darajasi o‘zgarishini aniqlangan. Tanlab olingan modellar

o‘lchamlari X-o‘qi bo‘yicha 30 m, Y-o‘qi bo‘yicha 20 m, Z-o‘qi bo‘yicha 30 m ni tashkil qiladi.



1-rasm. Muhandislik tayyorgarlikdan oldingi va keyingi holatdagi maydonning chekli elementlarga bo‘lingan 3D modellari



2-rasm. Tanlangan model 12231 ta tugunlarga ajratilgan 3D modeli


O‘rganilayotgan hudud 12231 ta tugunlar 5091 ta chekli elementlarga bo‘lingan. Chekli elementlarning shakllari noto‘g‘ri tetrayedr sifatida tanlangan. Masalani yechishning keyingi bosqichda dasturga muhandislik tayyorgarlikdan oldingi va keyingi holatlardagi grunt parametrlari kiritilgan. Grunt parametrlari kiritilgandan so‘ng tanlab olingan bir xil o‘lchamli ikkala model uchun seysmik ta’sir sifatida X-o‘qi bo‘yicha, sodir bo‘lgan zilzila natijasida yozib olingan real akselerogramma kiritilgan. Akselerogramma koordinatalari (X-40,16; Y-71,72) bo‘lgan, $M=5,2$ magnitudali, zilzilaning o‘chog‘ining chuqurligi $H=10$ km joylashgan, mahalliy vaqt bilan 06.11.2020 yil soat 7:38 da sodir bo‘lgan zilzilaning natijasida yozib olingan. Plaxis 3D dasturi yordamida hisoblash ishlaridan so‘ng biz istalgan tugunlardagi seysmik ta’sirning istalgan vaqtdagi X-o‘qi bo‘yicha tezlik, tezlanish va siljish qiymatlarini aniqlab olishimiz mumkin bo‘ladi. Quyida 4-jadvalda tanlangan tugundagi tezlanish, tezlik va siljishlarning eng maksimal qiymatlari orasidagi farqlar keltirilgan.

Muhandislik tayyorgarlikdan oldingi va keyingi tanlangan tugundagi tezlanish, tezlik va siljish qiymatlari


Tabiiy holatda	Keyingi holatda	Farqi	Tabiiy holatda	Keyingi holatda	Farqi	Tabiiy holatda	Keyingi holatda	Farqi
Tezlanish, a_x (sm/s ²)			Tezlik, v_x (sm/s)			Siljish, u_x (sm)		
a_{x1}	a_{x2}	Δa_x	v_{x1}	v_{x2}	Δv_x	u_{x1}	u_{x2}	Δu_x
349,6	300	49,6	25,9	20,6	5,3	1,27	0,90	0,37

Foiz hisobda tanlangan tugundagi tezlanishlar 14,18 % ga kamaygan. Tezlik esa shu hisobda 20,46 % ga kamaygan va siljish esa 11,29 % ga kamaygan.

Lyosimon gruntlarda temirbeton qoziqlarni qo'llagan holda qurilish maydonining seysmiklik darajasini o'zgarishini aniqlash. Lyosimon gruntlari tarqalgan qurilish maydonlarida temirbetonli qoziqlarni qoqish orqali seysmik ta'sir va seysmik effekt o'zgarishini fazoviy makonda ChEU yordamida baholash ko'rib chiqilgan. Yaratilgan modellar o'chamlari X-o'qi bo'yicha 32m, Y- o'qi bo'yicha 25m, Z-o'qi bo'yicha 30m ni tashkil qiladi. Qolaversa modellar 13013 ta tugunlar va 5371 ta chekli elementlarga bo'lingan.



3-rasm. Qurilish maydonining chekli elementlarga bo'lingan 3D modeli



4-rasm. Tanlangan modellar 13013 ta tugunlarga ajratilgan 3D model


Dasturga grunt parametrlari kiritilgandan so'ng tanlab olingan bir xil o'lchamli ikkala model uchun seysmik ta'sir sifatida real akselegrogramma kiritilgan. Akselerogramma koordinatalari (X-37,95; Y-67,02) bo'lgan, M=5,8 magnitudli, zilzilaning o'chog'ining chuqirligi H=15 km joylashgan, mahalliy vaqt bilan 12.05.2022 yil soat 15:35 da sodir bo'lgan zilzilaning natijasida yozib olingan. X-o'qi bo'yicha berilgan seysmik ta'sir davomida tezlanish, tezlik va siljishlarning eng maksimal qiymatlari orasidagi farqlar, hisoblash ishlari natijalari 5-jadvalda keltirilgan.

Muhandislik tayyorgarlikdan oldingi va keyingi tanlangan tugundagi tezlanish, tezlik va siljish qiymatlari


Tabiiy holatda	Keyingi holatda	Farqi	Tabiiy holatda	Keyingi holatda	Farqi	Tabiiy holatda	Keyingi holatda	Farqi
Tezlanish, a_x (sm/s ²)			Tezlik, v_x (sm/s)			Siljish, u_x (sm)		
a_{x1}	a_{x2}	Δa_x	v_{x1}	v_{x2}	Δv_x	u_{x1}	u_{x2}	Δu_x
446,3	299,2	147,1	15,5	10,2	5,3	1,64	1,34	0,30

Foiz hisobda tanlangan tugundagi tezlanishlar 32,95 % ga kamaygan. Tezlik esa shu hisobda 11,64 % ga kamaygan va siljish esa 18,29 % ga kamaygan.

Lyossimon gruntlarida deep soil mixing qoziqlarini o‘rnatish orqali qurilish maydonining seysmiklik darajasini o‘zgarishi aniqlangan. Cho‘kuvchan gruntlar tarqagan qurilish maydonlarida DSM qoziqlarini tayyorlash orqali seysmik ta’sir va seysmik effekt o‘zgarishini fazoviy makonda ChEU yordamida baholangan. Yaratilgan modellarning o‘lchamlari 28x22x30 m. Qurilish maydonining yaratilgan modeli 13247 ta tugunlar 5535 ta chekli elementlarga bo‘lingan. Chekli elementlarning shakllari noto‘g‘ri tetrayerdr sifatida tanlangan.



5-rasm. Qurilish maydonining chekli elementlarga bo‘lingan 3D modeli



6-rasm. Tanlangan model 13247 ta tugunlarga ajratilgan 3D modeli


X-o‘qi bo‘yicha seysmik ta’sir sifatida berilgan akselerogramma koordinatalari (X-41,03; Y-73,37) bo‘lgan, M=4,6 magnitudali, zilzila o‘chog‘ining chuqirligi H=5 km joylashgan, mahalliy vaqt bilan 29.09.2021 yil soat 7:46 da sodir bo‘lgan zilzila natijasida yozib olingan. Yaratilgan ikkala modellarga X-o‘qi bo‘yicha berilgan seysmik ta’sir vaqtidagi tezlanish, tezlik va siljish parametrlarining yeng maksimal qiymatlari orasidagi farqlar 6-jadvalda keltirilgan.

Muhandislik tayyorgarlikdan oldingi va keyingi tanlangan tugundagi tezlanish, tezlik va siljish qiymatlari

Tabiiy holatda	Keyingi holatda	Farqi	Tabiiy holatda	Keyingi holatda	Farqi	Tabiiy holatda	Keyingi holatda	Farqi
Tezlanish, a_x (sm/s ²)			Tezlik, v_x (sm/s)			Siljish, u_x (sm)		
a_{x1}	a_{x2}	Δa_x	v_{x1}	v_{x2}	Δv_x	u_{x1}	u_{x2}	Δu_x
417,4	329,9	87,5	10,8	9,6	1,2	0,57	0,46	0,11

Foiz hisobda tugundagi tezlanishlar 20,96 % ga kamaygan. Tezlik esa shu hisobda 11,2 % ga kamaygan va siljish esa 19,29 % ga kamaygan.

Lyossimon gruntlarida burg‘ilama armoturali qoziqlardan foydalangan holda qurilish maydonining seysmiklik darajasini o‘zgarishi aniqlangan. Plaxis 3D dasturi yordamida tanlab olingan modellarimiz ya’ni muhandislik tayyorgarlikdan oldingi va keyingi holatdagi modellar tugunlaridagi tezlanish, tezlik va siljishlar qiymatlarining o‘zgarishini baholangan. Qurilish maydonining yaratilgan modellari 24231 ta tugunlar 10468 ta chekli yelementlarga bo‘lingan. Chekli elementlarning shakllari noto‘g‘ri tetrayerd sifatida tanlangan.



7-rasm. Qurilish maydonining chekli elementlarga bo‘lingan 3D modeli

8-rasm. Tanlangan model 24231 ta tugunlarga ajratilgan 3D modeli

Masalani yechishning keyingi bosqichda dasturga muhandislik tayyorgarlikdan oldingi va keyingi holatlardagi grunt parametrlari kiritilgan. X-o‘qi bo‘yicha seysmik ta’sir sifatida real akselegrogramma kiritilgan. Akselerogramma koordinatalari (X-40,16; Y-71,72) bo‘lgan, M=5,2 magnitudali, zilzilaning o‘chog‘ining chuqirligi H=10 km joylashgan, mahalliy vaqt bilan 06.11.2020 yil soat 7:38 da sodir bo‘lgan zilzilaning natijasida yozib olingan. Ikkala holat uchun X o‘qi bo‘yicha seysmik ta’sir vaqdagi 13261 tugundagi maksimal tezlanish, tezlik va siljishlar farqini qiymatlari aniqlangan va 7-jadvalda keltirib o‘tilgan.

7-jadval

Muhandislik tayyorgarlikdan oldingi va keyingi tanlangan tugundagi tezlanish, tezlik va siljish qiymatlari

Tabiiy holatda	Keyingi holatda	Farqi	Tabiiy holatda	Keyingi holatda	Farqi	Tabiiy holatda	Keyingi holatda	Farqi
Tezlanish, a_x (sm/s²)			Tezlik, v_x (sm/s)			Siljish, u_x (sm)		
a_{x1}	a_{x2}	Δa_x	v_{x1}	v_{x2}	Δv_x	u_{x1}	u_{x2}	Δu_x
376,3	220	156,3	20,1	16,7	3,4	1,24	1,10	0,14

Foiz hisobda tugundagi tezlanishlar 41,53 % ga kamaygan. Tezliklar shu hisobda 16,91 % ga kamaygan va siljishlar esa 11,29 % ga kamaygan. Quyidagi 8-jadvalda 4 xil usulda gruntlarda tabiiy va muhandis-texnik tayyorgarlik keyingi tanlangan tugunlardagi farqlar keltirilgan.

8-jadval

Muhandislik tayyorgarlikdan oldingi va keyingi tanlangan tugunlardagi tezlanish, tezlik va siljish qiymatlari qiyosiy jadvali

	Tabiiy holatda	Keyingi holatda	Farqi	Tabiiy holatda	Keyingi holatda	Farqi	Tabiiy holatda	Keyingi holatda	Farqi
Ko'rsatkichlar	Tezlanish, a_x (sm/s²)			Tezlik, v_x (sm/s)			Siljish, u_x (sm)		
M/t usullari	a_{x1}	a_{x2}	Δa_x	v_{x1}	v_{x2}	Δv_x	u_{x1}	u_{x2}	Δu_x
Grunt to'shalmasi	349,6	300	49,6	25,9	20,6	5,3	1,27	0,90	0,37
Temirbeton qoziq	446,3	299,2	147,1	15,5	10,2	5,3	1,64	1,34	0,30
Deep soil mixing	417,4	329,9	87,5	10,8	9,6	1,2	0,57	0,46	0,11
Burg'ulama armaturali qoziq	376,3	220	156,3	20,1	16,7	3,4	1,24	1,10	0,14

XULOSA

1. Tanlangan muhandis-texnik tayyorgarlik usullarini qo'llash, shuningdek tayyorlangan qatlama qalinligiga uzviy bog'liq ravishda gruntlarning fizik-mexanik xossalari qiymatlarini qurilish nuqtai nazaridan yaxshilanishiga olib kelishi aniqlangan.

2. Cho'kuvchan lyosimon gruntlarda muhandis-texnik tayyorgarlik usullariga qarab ko'ndalang to'lqinlarning tarqalish tezligi (Vs) grunt to'shalmasi usulida 1,3 barobar, temirbeton qoziqlar usulida 2,4 barobar, deep soil mixing usulida 3 barobar, burg'ulama armaturali qoziqlar usulida 3,8 barobar oshganligi aniqlandi.

3. Qurilish maydonlarining seysmik jadallik orttirmasi tanlangan usullarga bog'liq ravishda, ya'ni 30 m qatlama uchun, grunt to'shalmasida -0,52 ball, temirbeton qoziqlarda -1,02 ball, deep soil mixing qoziqlarida -0,91 ball va burg'ulama armaturali qoziqlarda -1,22 ballarga kamayishi aniqlangan.

4. Lyosimon gruntlarning cho'qqi tezlanish qiymatlarining o'zgarishi mos ravishda gruntlarning fizik-mexanik va seysmik parametrlari hamda, qurilish maydonining dastlabki seysmikligi asosida aniqlangan.

5. Har bir tadqiqot ob'yekti sifatidagi tanlangan qurilish maydonlarining 3D modellari Plaxis 3D dasturi yordamida ishlab chiqilgan. Mazkur modellardan foydalanilgan holda ularni tashkil qiluvchi tugunlardagi tezlanish, tezlik va siljish parametrlarining o'zgarishi qiymatlari berilgan seysmik ta'sir natijasida baholangan.

6. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, seysmik ta'sirlarni darajasini kamaytirish uchun tanlangan muhandis-texnik tayyorgarlik ishlari orasidagi eng samarali usul burg'ulama armoturali qoziqlar bo'lib, seysmik jadallik orttirmasining qiymatlar farqi -1,22 ballni, shuningdek Plaxis 3D dasturidan foydalangan holda ishlab chiqilgan 3D model tugunlaridagi dinamik parametrlari orasidagi eng katta qiymatlar farqi aniqlandi.

7. Seysmik faol bo'lgan hududlarda seysmik ta'sir va seysmik jadallikni baholash uslublari takomillashtirildi.

8. Qurilish vaqtini qisqartirishdagi eng samarali usul deep soil mixing qoziqlari bo'lib, maydonning seysmiklik darajasini -1 ballga kamaytirishi aniqlangan. Shuningdek qurilish maydonlarida qo'llanilgan muhandis-texnik tayyorgarlik usullarini taqqoslash natijalari asosida iqtisodiy jihatdan eng samarali usul sifatida tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.08.2022. Т.97.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ СЕЙСМОЛОГИИ**
ИНСТИТУТ СЕЙСМОЛОГИИ

БОЗОРОВ ЖОНИБЕК ШАВКАТОВИЧ

**ОЦЕНКА ИЗМЕНЕНИЯ СЕЙСМИЧЕСКОЙ ИНТЕНСИВНОСТИ НА
СТРОИТЕЛЬНЫХ ПЛОЩАДКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДОВ
ИНЖЕНЕРНОЙ ПОДГОТОВКИ ЛЁССОВИДНЫХ ГРУНТОВЫХ ОСНОВАНИЙ**

05.10.03 – Сейсмическая безопасность

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

Ташкент-2024

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером В2024.2.PhD/T4801.

Диссертационная работа выполнена в Институте сейсмологии.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.seismos.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Исмаилов Вахитхан Алиханович**
доктор геолого-минералогических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Каюмов Абдубаки Джалилович**
доктор технических наук, профессор

Аимбетов Иззет Каллиевич
доктор технических наук

Ведущая организация: **Ташкентский архитектурно-строительный университет**

Защита диссертации состоится «11» декабря 2024 года в «14⁰⁰» часов на заседании Научного совета DSc.02/30.08.2022. Т.97.02 при Институте сейсмологии (Адрес: 100128, г. Ташкент, ул. Зулфияхоним, 3. Тел.: +99871 241-51-70; +99871 241-74-98; E-mail: seismologiya@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института сейсмологии (регистрационный номер №_____) (100128, г. Ташкент, ул. Зулфияхоним, 3. Тел.: +99871 241-51-70).

Автореферат диссертации разослан «22» ноября 2024 года.
(реестр протокола рассылки № 1 от «22» ноября 2024 года)



А.И. Туйчиев
Заместитель председателя Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.ф.-м.н.

М.А. Мирзаев
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор философии (PhD) по ф.-м.н.

К.Д. Салимова
Заместитель председателя научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых степеней,
д.ф.-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы. В мире особое значение придается вопросам сокращение потерь, которые могут возникнуть в результате сильных землетрясений, а также обеспечения сейсмической безопасности населения и регионов. В настоящее время в развитых странах мира снижение сейсмического воздействия за счет повышения прочности грунтов оснований зданий и сооружений, оценки сейсмостойкости зданий и сооружений, инженерно-технической обработки грунтов оснований служит повышению экономической эффективности проектно-строительных работ. В связи с этим особое внимание уделяется инженерным вопросам подготовки грунтов оснований зданий и сооружений с использованием современных технологий, а также повышению их сейсмостойкости.

По всему миру, в странах с высокой сейсмической активностью с распространенными лессовыми грунтами, проводятся научные исследования, направленные на разработку инженерно-технических мероприятий по повышению прочности грунтов оснований зданий и сооружений. В этом направлении исходя из типа просадочности лёссовидных грунтов, осуществление инженерно-технической подготовки, оценка сейсмического воздействия на здания и сооружения посредством моделей одинакового размера, а также разработка оптимальной методики оценки изменения сейсмической интенсивности считаются приоритетными исследованиями. При этом, повышение эффективности проводимых исследований по обеспечению сейсмостойкости лёссовых грунтов считается одной из актуальных задач.

Достигнуто снижение сейсмической интенсивности в сейсмически активных регионах нашей Республики на строительных площадках городов Ташкента, Кокана и Термеза, где распространены осадочные лёссовые грунты. В связи с этим в Указе Президента Республики Узбекистан № ПФ-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» определены задачи, в частности «...защиты экологии и окружающей среды, улучшения экологической ситуации в городах и районах...»¹. При реализации этих задач считается важным определение и оценка изменения сейсмической интенсивности, а также разработка мероприятий по повышению прочности грунтов оснований на строительных площадках с использованием методов инженерной подготовки на основе современных технологий.

Данная диссертация в определенной степени служит выполнению задач, определенных Президента Республики Узбекистан в Постановлении №ПФ-144 от 30 мая 2022 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы сейсмической безопасности Республики Узбекистан», Постановлении № РQ-158 от 16 мая 2023 года «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы обеспечения сейсмической безопасности населения и территории Республики Узбекистан» а также определенных в других нормативных правовых документах, связанных с этой деятельностью.

